



“O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonun mazmun-mohiyati

---

O‘RQ–883, 18.12.2023 y.

# Saylov kodeksiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalarga ko'ra:



Qonunchilik palatasi deputatlari saylovini o'tkazish uchun **75 ta** hududiy **bir mandatli** saylov okrugi tuziladi





**Qonunchilik palatasi deputatligiga siyosiy partiyalar tomonidan ko'rsatilgan nomzodlar ro'yxati asosida Qonunchilik palatasiga saylov o'tkazish uchun O'zbekistonning butun hududi yagona saylov okrugi hisoblanadi**



**VOTE**



Partiya ro'yxati Markaziy saylov komissiyasi tomonidan ro'yxatga olinganidan keyin, ushbu ro'yxatga kiritilganlar **deputatlikka nomzod maqomini oladi** va ularga **guvohnoma beriladi**



Partiya ro'yxatiga kiritilgan nomzodlar ushbu siyosiy partiyaning **a'zolari yoki partiyasiz bo'lishi mumkin**. Boshqa siyosiy partiyaning a'zolari ushbu **ro'yxatga kiritilishi mumkin emas**




Deputatlikka nomzodlarni tanlash tartibi **siyosiy partiyalar** tomonidan belgilanadi

**Ayollarning** soni bir mandatli saylov okruglari bo'yicha, shuningdek partiya ro'yxati asosida siyosiy partiyadan ko'rsatilgan deputatlikka nomzodlar sonining **kamida 40 foizini** tashkil etishi kerak. Bunda partiya ro'yxatidagi ketma-ketlikda kamida har 5 nafar nomzodning **ikki nafari ayol kishi** bo'lishi lozim

Yagona saylov okrugi bo'yicha saylanadigan Qonunchilik palatasining deputatlik o'rinlari ushbu saylovda ishtirok etgan saylovchilar ovozlarning **7 va undan ko'proq foizini to'plagan siyosiy partiyalar o'rtasida** taqsimlanadi

Agar saylovda ishtirok etgan saylovchilar ovozlarning 7 va undan ko'proq foizini faqat bitta siyosiy partiya to'plagan bo'lsa, unda deputatlik o'rinlari saylovda saylovchilarning eng ko'p ovozi to'plagan **ikkinchi siyosiy partiyaga** ham taqsimlanadi



■ Markaziy saylov komissiyasi deputatlik mandatlarini siyosiy partiyalar o'rtasida taqsimlash to'g'risida **bayonnoma tuzadi**

Partiya ro'yxati bo'yicha saylangan deputatlar o'rtasida deputatlik mandatlarini taqsimlash **Markaziy saylov komissiyasi** tomonidan ro'yxatga olingan partiya ro'yxatiga kiritilgan **deputatlikka nomzodlar ketma-ketligiga muvofiq amalga oshiriladi**



**E'tiboringiz uchun rahmat!**